



TECH SCIENCE

ISSN 3030-3702

**TEXNIKA FANLARINING
DOLZARB MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL
SCIENCES**



№ 5 (4) 2026

TECHSCIENCE.UZ

№ 5 (4)-2026

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES
OF TECHNICAL SCIENCES**

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

KARIMOV ULUG'BEK ORIFOVICH

TAHRIR HAY'ATI:

Usmankulov Alisher Kadirkulovich - Texnika fanlari doktori, professor, Jizzax politexnika universiteti

Fayziyev Xomitxon – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Rashidov Yusuf Karimovich – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Adizov Bobirjon Zamirovich– Texnika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti;

Abdunazarov Jamshid Nurmuxamatovich - Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Umarov Shavkat Isomiddinovich – Texnika fanlari doktori, professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti;

Bozorov G'ayrat Rashidovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Maxmudov Muxtor Jamolovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Asatov Nurmuxammat Abdunazarovich – Texnika fanlari nomzodi, professor, Jizzax politexnika universiteti;

Mamayev G'ulom Ibroximovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Jizzax politexnika universiteti;

Ochilov Abduraxim Abdurasulovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370-son qarori bilan texnika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB**

MASALALARI elektron jurnali
15.09.2023-yilda 130343-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.
Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

<i>Беккулов Джахонгир, Тураев Хуршид</i> ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССОМ СУШКИ ТВЁРДЫХ СЫПУЧИХ МАТЕРИАЛОВ	5-15
<i>Бахромов Хасан, Бозорбоев Жавлонбек, Жумаев Фиёсжон</i> АЛГОРИТМЫ ПОСТРОЕНИЯ ФИЛЬТРА ВИНЕРА-ХОПФА И ФИЛЬТРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ИЗОБРАЖЕНИЙ НА ЕГО ОСНОВЕ	16-20
<i>Hamdamova Dilshoda</i> BADIIY ADABIYOTLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH TIZIMI Й	21-23
<i>Babadjanov Elmurod, Maxambetjaliev Musabek</i> RFID YORDAMIDA AVTOTURARGOH KIRISH-CHIQUISHINI NAZORAT QILISH VA BANDLIKNI QISQA MUDDATTA VAHOLASH	24-29
<i>Айтмуратов Бакберген, Оразымбетов Темурубек</i> МОНИТОРИНГ СОСТОЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ УГОДИЙ НУКУССКОГО РАЙОНА НА ОСНОВЕ МНОГОСПЕКТРАЛЬНЫХ ВЕГЕТАЦИОННЫХ ИНДЕКСОВ И МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ	30-36
<i>Qutlimuratov Yusup, Orazbayev Shaxmardan</i> YERLARNING SHO'RLANISH DARAJASINI ANIQLASH VA PROGNOZ QILISHDA NEYRON TARMOQLARDAN FOYDALANISH	37-42
<i>Aimbetova Gulara, Sarsenbaeva Hu'rlixa, Djumabaev Alpamis</i> KAM RESURSLI TILLARNI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'TY INTELLEKT MODELLARINING SAMARADORLIGI VA MAVJUD MUAMMOLAR	43-48
<i>Abdullayev Elmurod, Bektemirov Hojimurod</i> TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH ALGORITMLARINING BARQARORLIGINI NAZARIY TAHLIL QILISH	49-54
<i>Mamatov Narzillo, Samijonov Abdurashid, Abdullaeva Barno,</i> <i>Usarov Jurabek, Samijonov Boymirzo</i> QULOQ CHANOG'IGA ASOSLANGAN SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH USULI	55-67
<i>Xaqberdiyev Asliddin</i> TOMCHILATIB SUG'ORISHDA NAVIER - STOKES TENGLAMALARIDAN FOYDALANIB, SUV SARFINI OPTIMALLASHTIRISH	68-74
<i>Xamzayev Dilshod</i> PAXTANI QURITISH QURILMASI: KONSTRUKSIYA, ISH PRINSIPLARI VA ISSIQLIK-TEXNIK XUSUSIYATLARNING KENGAYTIRILGAN TADQIQI	75-80
<i>Odilova Mohigul</i> METROLOGIYA SOHASIDA XALQARO UYG'UNLASHUV: O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL INTERNATIONAL HARMONIZATION IN THE FIELD OF METROLOGY: A CASE STUDY OF UZBEKISTAN	81-87

<i>Doniyev Erkin, Yusupov Rustam, Eshqurbonov Anvar</i> BAZALT TOLALI KOMPOZIT QOPLAMALARNI YAQIN INFRAQIZIL NURLANISH YORDAMIDA QURITISH: TEXNOLOGIYA, STRUKTURA VA XOSSALAR	88-94
<i>Sayitov Shavkatjon, Xolmatov Erkinjon</i> PAHTA QURITISH JARAYONINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	95-103
<i>Эргашева Камола</i> ОПТИМИЗАЦИЯ ПАРАМЕТРОВ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ИЗМЕРИТЕЛЬНОГО УСТРОЙСТВА ДЛЯ КОНТРОЛЯ РЕОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ЖИДКИХ СРЕД	104-110
<i>Ismoilov Muxriddin, Rahimov Anvarjon, Isomiddinova Soliha, Xolmamatova Shaxzoda</i> ASINXRON DVIGATELLAR BOSHQARUV TIZIMLARIDA TIZIMLI XATOLIKLARNI DIAGNOSTIKA QILISH VA ULARNI KOMPENSATSIYA QILISH ORQALI DASTGOHLAR ANIQLIGINI OSHIRISH	111-120
<i>To'rayev Azizbek, Karimov Abror</i> YAQIN INFRAQIZIL NURLANISHGA ASOSLANGAN O'LCHASH ASBOBLARINI TADQIQ QILISH VA ULARNING METROLOGIK XARAKTERISTIKALARINI O'RGANISH	121-126
<i>Рустамзаде Джошгун</i> ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ЖАРКОГО КЛИМАТА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ СГОРАНИЯ В ГАЗОВЫХ ТУРБИНАХ И РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ	127-136
<i>Mammadov Fuad, Kalbaliyev Faig</i> PERFORMANCE ASSESSMENT OF SUPERCRITICAL CO2 BRAYTON CYCLES IN SOLAR POWER TOWER SYSTEMS	137-145
<i>Xasanov Azimjon</i> MAHALLIY XOM ASHYOLAR VA CHIQINDILAR ASOSIDA YENGIL BETON	146-151
<i>Abdumannopov Ozodbek, Askarov Xasanjon</i> O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	152-156
<i>Xujanov Chariyar</i> QUTQARUV-QIDIRUV ISHLARINING VAZIFALARI VA TASHKILIY TUZILMASI	157-162

QUTQARUV-QIDIRUV ISHLARINING VAZIFALARI VA TASHKILY TUZILMASI

Xujanov Chariyar Ruziyevich

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi

kafedra professori, t.f.f.d.(PhD), dotsent

Email: fvvakademiya63@gmail.com

UDK:613.618

Annotatsiya. Maqola Qutqaruv-qidiruv tayyorgarligi fanining asosiy maqsadiga, favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni qidirish, qutqarish va ularga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus bilim, ko'nikma hamda jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan mtaxassislarni tayyorlashga, fanning asosiy vazifalariga, qutqaruv-qidiruv amaliyotlarini tashkil etish, favqulodda vaziyat hududlarida jabrlanganlarni tezkor qidirish usullarini o'rgatishga, texnika va jihozlardan foydalanish, qutqaruv asbob-anjomlari, maxsus texnika va himoya vositalarini boshqarish mahoratini shakillantirishga, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, xavfli va tog'li hududlarda mustaqil harakat qilish va shaxsiy xavfsizlikni ta'minlashga, birinchi yordam ko'rsatish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ularni xavfli hududdan evakuatsiya qilishni tashkillashtirishga, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik, qutqaruvchilarni ekstremal sharoitlarga jismonan va ruhan chiniqtirishga, ushbu fan orqali qutqaruvchilar insonlar hayotini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarga ega bo'lishlari va harqanday favqulodda vaziyatlarda ham ishonchli harakatlarni amalga oshirishlariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: qutqaruv-qidiruv, inson, xavfsizlik, qutqaruvchi, ko'nikma, evakuatsiya, ekstremal, tezkor, texnika, vaziyat, xavfli.

TASKS AND ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF SEARCH AND RESCUE OPERATIONS

Khuzhanov Chariyar Ruzievich

Academy of the Ministry of Emergency Situations

Professor of the department, candidate of sciences,

associate professor

Annotation. The article is devoted to the main purpose of the discipline "Search and Rescue Training", which is to prepare specialists who possess special knowledge, skills, and physical training for searching for victims, rescuing them, and providing assistance in emergency situations.

The main tasks of the discipline include organizing search and rescue operations and teaching methods for rapid search of victims in emergency areas. It also involves the use of equipment and technology, as well as developing the skills required to operate rescue tools, special machinery, and protective equipment. Compliance with safety regulations, the ability to act independently in dangerous and mountainous areas, and ensuring personal safety are also emphasized. Providing first aid, organizing first medical assistance to victims, and arranging their evacuation from dangerous areas are important components. Physical and psychological training are aimed at preparing rescuers to operate effectively in extreme conditions.

Through this discipline, rescuers acquire all the necessary skills required to save human lives and to act confidently in any emergency situation.

Keywords: search and rescue, human, safety, rescuer, skills, evacuation, extreme conditions, rapid response, equipment, situation, danger.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ts-v4i5y2026N22>

Kirish, Insoniyat tarixi davomida azaldan duch bo'lib kelayotgan va XXI-asrda tobora ortib borayotgan tahdit-favqulodda vaziyatlar sharoitida insonlar hayoti va sog'lig'ini asrashdek muqaddas vazifani bajarishga bag'ishlangan qutqaruv qidiruv ishlarining har tomonlama nazariy va amaliy asoslarini chuqur yoritib beruvchi fundamental manbadir. Biz yashayotgan davr, bir tomondan, tabiiy ofotlarning soni va shafqatsizligining ortishi, texnogen avariyaalarning murakkablashivi va ijtimoiy siyosiy beqarorliklarning yangi shakillari bilan xarakterlanadi.

Bu holatlar qutqaruvchilardan har qachongidan ham yuqori darajadagi professional, tezkorlik, jasorat va uzliksiz tayyorgarlikni talab etmoqda. Ushbu maqola aynan shu muhim ehtiyojlarni qondirishga, qutqaruvchilarni Favqulodda vaziyatlarning eng xilma-xil, noaniq va murakkab sharoitlarda ham malakali, samarali va xavfsiz harakat qilishga tayyorlashga hissa qo'shishga mo'ljallangan.

Har kuni ommaviy axborot vositalari yer yuzida sodir bo'layotgan vaziyatlar to'g'risida ma'lum qiladi, shu jumladan, sodir bo'layotgan talofatlar, favqulodda vaziyatlar, avariyaal, havo kemalari bilan bog'liq aviahalokatlar va boshqa turdagi ma'lumotlar yoritiladi.

Insonlar hayoti va salomatligini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini muhofaza qilish, shuningdek, tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish va zararlarini kamaytirish sohasida davlat siyosati ishlab chiqilgan va amalga oshirilmogda. Shu jumladan, qutqaruv-qidiruv ishlarini samarali olib borish Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv-qidiruv ishlarini tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish hamda aholi xavfsizligini ta'minlash masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Mazkur sohada olib borilgan tadqiqotlar asosan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, qutqaruv ishlarini tashkil etish, qutqaruvchilarni tayyorlash va ularning amaliy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan [1-4].

O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlar sohasini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlar qatoriga "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonun, "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi Qonun hamda "Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun kiradi. Ushbu hujjatlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish hamda qutqaruv xizmatlarining vazifalari belgilab berilgan[5-10].

Shuningdek, davlat rahbari tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda favqulodda vaziyatlar tizimini modernizatsiya qilish, qutqaruv xizmatlarining texnik bazasini mustahkamlash hamda ularning samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ilmiy va o'quv adabiyotlarda ham qutqaruv-qidiruv ishlarini tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, B.B. G'afurovning "Avariya-qutqaruv ishlari" darsligida qutqaruv operatsiyalarining nazariy asoslari, ularni tashkil etish tartibi hamda texnik vositalardan foydalanish usullari tahlil qilingan. Ch.R.Xujanov, S.S.Tajibayev va boshqa mualliflarning "Jangovar tayyorgarlik", "Yong'in saf tayyorgarligi" hamda "Harbiy tayyorgarlik" darsliklarida qutqaruvchilarni tayyorlash, ularning jismoniy va psixologik tayyorgarligi, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish taktikasi haqida muhim ma'lumotlar berilgan[11-14].

Mazkur ilmiy manbalar qutqaruv-qidiruv ishlarini samarali tashkil etish, qutqaruvchilarni tayyorlash hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish masalalarini yoritishda muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot favqulodda vaziyatlarda qutqaruv-qidiruv ishlarini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida qutqaruv ishlarining tashkiliy tuzilmasi, ularning samaradorligini oshirish omillari hamda qutqaruvchilarni tayyorlash masalalari tahlil qilindi[15-16].

Muhokama. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:
-tahlil va sintez usuli;

- tizimli yondashuv usuli;
- taqqoslash usuli;
- kuzatish usuli;
- umumlashtirish usuli.

Mazkur usullar yordamida favqulodda vaziyatlarda qutqaruv-qidiruv ishlarini tashkil etish jarayoni hamda ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi.

Tadqiqot davomida ma'lumotlar quyidagi manbalar orqali yig'ildi:

- normativ-huquqiy hujjatlar;
- ilmiy adabiyotlar va darsliklar;
- Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi faoliyatiga oid metodik materiallar;
- qutqaruv xizmatlari amaliy tajribasi.

Mazkur ma'lumotlar asosida qutqaruv-qidiruv ishlarini tashkil etishning mavjud holati tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida favqulodda vaziyatlarda olib boriladigan qutqaruv-qidiruv ishlari hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan qutqaruv xizmatlari faoliyati tanlandi.

Tadqiqot namunasi sifatida favqulodda vaziyatlarda qutqaruv operatsiyalarini tashkil etish jarayoni, qutqaruvchilarni tayyorlash tizimi hamda qutqaruv texnikalaridan foydalanish amaliyoti o'rganildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar quyidagi usullar yordamida tahlil qilindi:

- mantiqiy tahlil;
- statistik tahlil elementlari;
- qiyosiy tahlil;
- umumlashtirish va xulosa chiqarish usullari.

Ushbu usullar yordamida qutqaruv-qidiruv ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar aniqlab olindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy etika tamoyillariga qat'iy rioya qilindi. Tadqiqotda foydalanilgan barcha ma'lumotlar ishonchli manbalarga asoslangan holda keltirildi.

Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini amalga oshirishda qutqaruvchilar va jabrlanganlarning hayoti hamda sog'lig'ini muhofaza qilish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur tadqiqotning innovatsion jihatlari quyidagilardan iborat:

- qutqaruv-qidiruv ishlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish;
- qutqaruvchilarni tayyorlash jarayonida psixologik tayyorgarlik vastressni boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratish;
- favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish mexanizmlarintakomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari favqulodda vaziyatlarda qutqaruv-qidiruv ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu ilmiy natijalardan qutqaruvchilarni tayyorlash jarayonida, o'quv mashg'ulotlarida hamda metodik qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, favqulodda vaziyatlarda qutqaruv-qidiruv ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan qutqaruvchilar tayyorgarligi darajasi, zamonaviy texnika va jihozlar bilan ta'minlanganlik hamda tezkor boshqaruv tizimining mavjudligiga bog'liq.

Shuningdek, qutqaruv operatsiyalarida jamoaviy hamkorlik, psixologik tayyorgarlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati muhim omillar hisoblanadi.

Yurtimizning turli hududlarida hamda obyektlarida favqulodda vaziyat sodir bo'lganda qisqa vaqt ichida qutqaruv ishlari tasdiqlangan rejalar bo'yicha tashkil qilinadi hamda samarali olib boriladi. Ushbu vaqtda birinchi navbatda kechiktirib bo'lmaydigan ishlar tashkil qilinadi va

bajariladi. Har bir sodir bo'lgan favqulodda vaziyatda birinchi navbatda quyidagi ishlarni olib borish rejalashtirilgan:

-qutqaruv ishlarini har tomonlama ta'minlash (turli qutqaruv texnikasi, qutqaruv ishlarida foydalaniladigan vositalar, tibbiy yordam berish uchun mo'ljallangan maxsus asboblari, aholi va qutqaruvchilar vaqtincha joylashishi uchun turli chodirlar, mahsus aloqa vositalari);

-favqulodda vaziyatlarda jabrlangan aholiga tibbiy va boshqa yordam ko'rsatish (sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarda jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatishga tayyorlangan tibbiyot mutaxassislari, maxsus uskunalar bilan ta'minlangan tez yordam tibbiyot avtotransporti, vertolyotlar va samolyotlar);

-insonlar hayoti va sog'lig'ini saqlash uchun eng kam zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratish, ularning ish qobiliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyat olib borish.

Maqolaning zaminida inson hayoti oliy qadriyat degan amaliy tamoyil yotadi. Har bir qutqaruvchi yodda tutishi kerakki, uning harakati bevosita jabirlanuvchining hayoti va sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, maqolada qutqaruv ishlarining nafaqat texnik jihatlari, balki psixologik aspektlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jabirlanuvchilar bilan ishlashda ularning ruxiy holatini tushunish, ularni tinchlantirish va ularga umid berish qutqaruv jarayonining ajralmas qismi ekanligiga urg'u berilgan.

Qutqaruv-qidiruv tayyorgarligi fanining asosiy maqsadi- favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni qidirish, qutqarish va ularga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus bilim, ko'nikma hamda jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdir. Bu fan qutqaruvchilarning xavfli sharoitlarda harakat qilish, texnika va asbob-anjomlardan foydalanish mahoratini oshiradi[17].

Fanning asosiy vazifalari:

Qutqaruv-qidiruv amaliyotlarini tashkil etish, Favqulodda vaziyat hududlarida jabrlanganlarni tezkor qidirish usullarini o'rgatish.

Texnika va jihozlardan foydalanish, qutqaruv asbob-anjomlari, maxsus texnika va himoya vositalarini boshqarish mahoratini shakillantirish.

Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, xavfli va tog'li hududlarda mustaqil harakat qilish va shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash.

Birinchi yordam ko'rsatish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ularni xavfli hududdan evakuatsiya qilish.

Jismoniy va ruhiy tayyorgarlik, qutqaruvchilarni ekstremal sharoitlarga jismonan va ruhan chiniqtirish.

Ushbu fan orqali qutqaruvchilar insonlar hayotini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarga ega bo'ladilar va harqanday avqulodda vaziyatlarda ham ishonchli harakatlarni amalga oshiradilar.

Qutqaruvchi kasbi - bu oddiy ish emas, bu-chaqiriq, fidoiylik va insonparvarlik falsafasidir. Bu kasb sohiblari eng og'ir vaziyatlarda, umid sungan joyda yorug'lik baxsh etuvchi, qo'rquvga qarshi turuvchi va hayot uchun kurashuvchi shaxslardir. Ular nafaqat o'zlarining bilim va ko'nikmalariga, balki o'zlarining jasoratlariga, qat'iyyatlariga va boshqalarga yordam berishga bo'lgan cheksiz istaklariga tayanadilar. Maqolaning asosiy maqsadi aynan shu ulug'vor vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlarni tizimlashtirish, amaliy ko'nikmalarni shakillantirish va qutqaruvchilarni har qanday vaziyatda ham tayyor turishga ilhomlashtirishdir.

Maqola qutqaruv-qidiruv ishlarining nafaqat texnik jihatlari, balki psixologik tayyorgarlik, stresni boshqarish va jamoaviy hamkorlik kabi muhim jihatlarni ham chuqur tahlil etadi, chunki bu omillar ko'pincha qutqaruv-qidiruv ishlarining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Qutqaruv-qidiruv ishlarini o'tkazishning maqsadi.

Dunyoda va shu jumladan respublikamizda texnogen va tabiiy favqulodda vaziyatlar ko'p sodir bo'lib kelmoqda. Har bir sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarda odamlar uchun xavfli vaziyatlar paydo bo'ladi, ularning ta'siri oqibatida odamlar jarohatlanadi va og'ir vaziyatlarda odamlarning halok bo'lishiga olib keladi. Atrof tabiiy muhitga katta zarar yetkazladi.

Sodir bo'lgan vaziyatlarda, texnogen avariyalarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruv xizmati tomonidan avariya-qutqaruv ishlari tashkil qilinadi.

Qutqaruv-qidiruv ishlarining asosiy maqsadi, avariya sodir bo'lgan hududda jabrlanganlarning joyini aniqlash uchun qidiruv ishlarini olib borish va ularni favqulodda vaziyat sodir bo'lgan joydan qisqa vaqtda olib chiqish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish va birinchi tibbiy yordam choralarini bajarish hamda vaziyatni baholab, imkon darajasida xavfli joydan qisqa vaqtda ularni tibbiyot muassasalariga evakuatsiya qilish choralarini ko'rishdir.

Evakuatsiya tadbirlarini bajarayotgan vaqtda quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur bo'ladi, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyat yuz bergan yoki favqulodda vaziyat yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan hududlardan aholini tashkiliy tarzda transportda (avtotransport, aviatransport-vertolyot yoki samolyot, temir yo'l transportida) olib chiqish, bunga imkoniyat bo'lmagan holda, piyoda olib chiqish hamda ularni sharoiti talabga javob beradigan bino va inshootlarda vaqtincha joylashtirish.

Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududda, obyektida, oldindan rejalarga kiritilgan quyidagi ishlar bajariladi[18]:

-odamlarning (aholining) hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash;

-atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini imkon qadar kamaytirish, shuningdek, turli favqulodda vaziyatlar ro'y bergan hududlarning kengayishiga yo'l qo'ymaslik;

-xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlarini va kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni kompleksini o'tkazish.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

-favqulodda vaziyatlarda qutqaruv-qidiruv ishlarini samarali tashkil etish qutqaruvchilar tayyorgarligi darajasiga bevosita bog'liq;

-qutqaruv operatsiyalarida zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi;

-qutqaruvchilarni tayyorlash jarayonida psixologik tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratish zarur.

Quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

-qutqaruvchilarni tayyorlash tizimini zamonaviy o'quv dasturlari asosida takomillashtirish;

-qutqaruv xizmatlarini zamonaviy texnika va uskunalari bilan ta'minlash;

-favqulodda vaziyatlarda tezkor boshqaruv tizimini rivojlantirish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi to'g'risida" gi 2000-yil 26-maydagi O'RQ-80- 11-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida" gi 2008-yil 26-dekabrda O'RQ-195-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" gi 2022-yil 17-avgustdagi O'RQ-790-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida" gi 2019-yil 10-apreldagi PF-5706-son Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" gi 2025-yil 20-oktabrda PF-185-sonli Farmoni .
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-310-sonli Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini raqamlashtirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-311-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholini Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqora muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi 2019-yil 9-sentabrdagi VM-754-sonli Qarori.
9. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" -T. "O'zbekiston" NMIU, 2017-yil.
10. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" -T. "O'zbekiston" Toshkent-2022-yil.
11. Ch.R.Xujanov, S.S.Tajibayev, R.X.Choriyev, B.B.Abduraximov. "Jangovar tayyorgarlik". Darslik.Toshkent. 2022-yil.-268bet.
12. B.B.Gafurov. "Avariya -qutqaruv ishlari". Darslik.Toshkent. 2024-yil. -244bet.
13. J.B.Yarbekov, Sh.D.Mirzayev, Ch.R.Xujanov,R.X.Choriyev. "Yong'in saf tayyorgarligi". Darslik. Toshkent. 2025-yil. -351bet.
14. Ch.R.Xujanov. "Harbiy tayyorgarlik". Darslik. FVV Akademiyasi Toshkent. 2025-yil. -300bet.
15. B.B.Gafurov. "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, yong'in xavfsizligini ta'minlash". O'quv qo'llanma. Toshkent-2023-yil. -161bet.
16. A.Boymirzayev. "Hayot xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam". O'quv qo'llanma. -T.: 2016-yil.
17. M.Tinibekov. "Birinchi yordam ko'rsatish qoidalari". O'quv qo'llanma. -T.: 2017-yil.
18. Ch.R.Xujanov. "Harbiy tayyorgarlik". O'quv qo'llanma. FVVAkademiya. Toshkent. 2025-yil. - 248bet.

TECHSCIENCE.UZ

TEXNIKA FANLARINING DOLZARB MASALALARI

№ 5 (4)-2026

TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL SCIENCES

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**
elektron jurnali 15.09.2023-yilda 130346-
sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.
Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com